



## ABU RAYHON BERUNIY TARAQQIYPARVAR BUYUK OLIM

Madraximov Tohirjon Isroilovich

*Namangan viloyati Chortoq tumani 8-IDUM ning faxriy fizika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada X-XI asrlarda sermazmun ijod etgan xorazmlik buyuk qomusiy olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning darbadarlik, sarsonu-sargardonlikda kechirgan hayot yo'li haqida so'z boradi. Serqirra ijodkor ekanligi ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *geotsentrik va gliotsentrik tizim, harakat traektoriyasi, farmakologiya, geodeziya, minerologiya.*

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlar Markaziy Osiyoning jahonda dastlabki madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganligini isbotlaydi. Qo'yqirilgan qal'a, Afrosiyob va Varaxsha xarobalari, qadimiy Xorazmning sug'orish inshootlarining qoldiqlari va hokazolarni fikrimizning dalili sifatida keltirish mumkin. IX-XI asrlar Markaziy Osiyo madaniyatining eng gullagan davri bo'lib, shu davrda yashagan buyuk olimlardan: matematik, astronom va geograf Xorazmiy astronom Farg'oniy, Balxiy, faylasuf va tabiatshunos Farobiy, mashhur tib olimi Ibn Sino va boshqalar jahon fanini o'zlarining bebaho o'lmas ilmiy asarlari bilan boyitganlar.

Necha zamonaviy ilmlarga asos solgan "Qomusiy bilimlar sohibi" umumjahon fani va madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan Abu Rayhon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy Kat (hozirgi Beruniy) da 973-yil 4-oktabrda dunyoga keldi. U asosiy ma'lumotni Xorazmda oladi. Uning birinchi o'qituvchisi Abu Nasr Mansur Ali ibn A'roq Evklid geometriyasi va Ptolomey asarlari bilan tanishtirdi. Bu davrda Xorazmda yangi kalendar (taqvim) tuzgan astronomlardan Xorajiy va Handaqiy ijodi, shuningdek, Xorazmiy, Farobiy, Farg'oniy va boshqa olim hamda mutafakkirlarning ilmiy meroslari Beruniyning fan asoslarini egallashida maktab vazifasini o'tadi.

Markaziy Osiyo olimlaridan tashqari Beruniy arab olimlaridan al-Battoniy, as-Sufiy, al-Ko'xiy, Abul Vafo, Ibn Yunus hamda Yunon olimlaridan Fales, Pifagor, Arximed, Galen, Gippokrat, Evklid, Ptolomey, Platon, Aristotel, hind olimi Braxmagupta va boshqalarning asarlarini o'qish uchun arab, fors, yunon, suriya, hind va boshqa tillarni o'rganadi.

Urganch amiri Ma'mun ibn Muhammad 995-yili Kat shahriga hujum qilgan vaqtda yosh olim Beruniy shahar mudofaasida qatnashib, keyinchalik Kaspiy dengizining sharqi-janubidagi Gorgan shahriga boradi. Bu orada u Qobus Sulton saroyida ilmiy ish bilan shug'ullanadi.

Beruniy 1010-yili Xorazmga kelib, Abul Abbos Ma'mun saroyida yashaydi. Beruniy yashagan vaqtda Abul Abbos Ma'mun qo'l ostida maxsus akademiya tashkil qilinib, shu Ma'mun akademiyasida Beruniydan tashqari qomusiy olim Ibn Sino, faylasuf Abu Sahl Masihiy, tib olimi Abulxayr Hammor mashhur matematik Abu A'roq va boshqalar ishlaganlar. Beruniy 7 yil davomida Xorazm Ma'mun akademiyasini boshqargan.



Mahmud G'aznaviy 1017-yili Xorazmni bosib olib "Ma'mun" akademiyasini yopadi. Olimlarni o'z poytaxti G'aznaga ko'chirmoqchi bo'ladi. Mahmud G'aznaviy buyrug'iga itoat etishdan bosh tortib, Ibn Sino va Abu Sahl Masihiylar qochishga majbur bo'ladilar. Abu Sahl sahroda halok bo'ladi, Ibn Sino esa Gorganda yashirinadi. Firdavsiy va Ibn Sino o'z vatanini tark etib, darbadarlikda yashaydi. Beruniy 6 oy qamoqqa hukm qilinadi. Keyinchalik Mahmud G'aznaviy Beruniyning o'tkir zehniligini bilib, har doim u bilan ilm sohasida maslahatlashib qolmasdan, hatto harbiy yurishlarda ham Beruniyni o'zi bilan olib yuradi.

Shunday yurishlardan birida Beruniy Hindistonga boradi va bir muncha muddat u yerda yashaydi. U yerdan hind tilini o'rganib qaytgach, bir qancha ilmiy asarlarni hindchadan arabchaga, arabchadan hindchaga tarjima qiladi va yangi asarlar yozadi.

Mahmudning o'g'li Ma'sud davrida Beruniy uchun anchagina qulay sharoit tug'ildi. Bu davrda o'zining "Qonuni Ma'sudiy" asarini yozadi va uni Ma'sud nomiga bag'ishlaydi.

Buyuk alloma Beruniy Mahmud G'aznaviy nabirasi, Ma'sudiyning o'g'li Mavdut saroyida (1048 yil 18 dekabrda) 75 yoshida G'azna shahrida vafot etadi. Beruniy darbadarlik, sarsonu-sargardorlikda bilimi o'tkirlashib, dunyoqarashi kengayib boradi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, Beruniy davrida Mahmud G'aznaviy davlatining poytaxti G'azna o'z madaniy taraqqiyoti bilan sharqdagi shaharlardan ajralib turgan.

Beruniyning bilim doirasi shunchalik keng bo'lganki, u tarix, til-adabiyot, geografiya, matematika, astronomiya, fizika, farmakologiya va boshqa sohalarda 200 dan ortiq asar yozgan. Mashhur arab olimi Yoqut Hamaviy Beruniy asarlarining 60 betdan iborat ro'yxatini ko'rganligini qayd qiladi. Lekin bu asarlarni ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan.

Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin "Menerologiya" risolasini yozdi. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro'pada ham minerologiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning farmakologiyaga oid "Dorivor o'simliklar haqida kitob"ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar "Saydona" nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi.

Beruniy osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Kopernikdan bir necha asr avval yerni koinot markazi deb biluvchi geotsentrik va Quyoshni koinot markazi deb o'rgatuvchi gliotsentrik tizim teng kuchga ega degan xulosaga keladi. Beruniy harakat traektoriyasi va osmon yoritqichlari shaklining ellepsoid ekanligi haqida birinchi bo'lib joylarning geografik kengligi va uzoqligini aniqlashda Beruniy erishgan natijalar hatto hozirgi zamon olimlarini ham hayratda qoldiradi.

Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslik, fizika, astronomiyaga asos soldi, uning turli sohalarida o'z davri uchun taajjubga soluvchi shunday fikr va ilmiy farazlarni olg'a surdiki, ular bir necha asrdan so'ng Ovro'pa ilmida o'z isbotini topdi. Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy tajribaga ega kuzatuvchi, kuzatish eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab boruvchilardandir.

Beruniyning asarlari musulmon Sharq madaniyatining so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. So'nggi asarlarda arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo'riy,



Qiftiy, Yoqut Hamaviy Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Qazviniy, Tusi, al-Xurosoniy asarlarida uchraydi. Omiriqolik tarixchi olim J.Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi.

Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilingan.

Mashhur sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, "uning qiziqqan sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osonroqdir" deb allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tgan.

YuNESKO va sharqshunoslarning XXV Butundunyo kongressining qaroriga muvofiq qomusiy olimning 1973-yilda 1000 yillik yubileyi o'tkazildi. Bu muhim tadbir beruniyshunoslik fanining keyingi yillarda yanada rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Beruniyning o'z vatani O'zbekistonda ham uning ijodiga katta e'tibor bilan qarab kelinmoqda. H.M.Abdullaev, I.M.Mo'minov, V.Yu.Zohidov, Ya.G'.G'ulomov, U.Karimov, S.A.Bulgakov kabi kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Toshkentda unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Birinchi bor Beruniyning "Qadimgi yodgorliklar", "Hindiston", "Ma'sud qonuni", "Geodeziya", "Saydona" kabi asarlarni o'z ichiga oluvchi ko'p tomli "Saylanma" asarlarini o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan nashr etildi. Ko'chalar, institutlarga uning nomi berildi. Beruniy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi.

O'zbekiston xalqi Beruniydek buyuk alloma farzandi bilan har qancha faxrlansa arziydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Райхон Беруний –Избранные произведения том 1,2,3.Ташкент
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2-jild
3. Ma'naviyat yulduzlari Toshkent-2001 104-bet
4. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari R.Nosirov Toshkent-1975
5. Ensiklopedik lug'at. Toshkent 1-tom. Toshkent – 1990.